

**JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI XUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.06.2020.T.115.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI**

**BEKTURDIEV G‘ULOM QUVONDIQ O‘G‘LI**

**TA‘MINLAGICHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI ARRALI JINNI  
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**05.06.02 - To‘qimachilik materiallari texnologiyasi  
va xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
technical sciences**

**Bekturdiev G‘ulom Quvondiq o‘q‘li**

Та‘минлагichni takomillashtirish orqali arrali jinni samaradorligini  
oshirish..... 5

**Бектурдиев Гулям Кувондикович**

Повышение эффективности пильного джина путем  
модернизации питателя..... 21

**Bekturdiev G‘ulom Quvondiq** Increasing the efficiency of the  
sawgin by improving the feeder..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 44

**JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI XUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI PhD.03/30.06.2020.T.115.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI**

**BEKTURDIEV G‘ULOM QUVONDIQ O‘G‘LI**

**TA‘MINLAGICHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI ARRALI JINNI  
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**05.06.02 - To‘qimachilik materiallari texnologiyasi  
va xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xuzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.2.PhD/T2912 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Jizzax politexnika instituti xuzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.jizpi.uz](http://www.jizpi.uz)) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Sulaymonov Rustam Shennikovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**O'rozov Mustaqul Qulto'rayevich**  
texnika fanlari doktori, dotsent

**Pardayev Xonimkul Normamatovich**  
texnika fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Jizzax politexnika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.06.2020.T.115.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil 2025-yil 17 oktyabr soat 14<sup>00</sup> daqiqa majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 130100, Jizzax sh., I.Karimov ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99872) 226-46-05; faks: (+99872) 226-45-47; e-mail: [dgpi.info@edu.uz](mailto:dgpi.info@edu.uz). Jizzax politexnika instituti ma'muriy binosi, 1- qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya ishi bilan Jizzax politexnika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (221-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 130100, Jizzax sh., I.Karimov ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99872) 226-46-05; faks: (+99872) 226-45-47.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 6 oktyabr kuni tarqatildi.  
(2025 yil 07 avgustdagi № 34 -raqamli reestr bayonnomasi).



**A.K. Usmankulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi, t.f.d., prof.

**I.Z. Abbazov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, t.f.d., dots.

**A. Parpiev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash huzuridagi  
ilmiy seminar raisi, t.f.d., prof.

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda paxta xom ashyosi tola, chigit va undan olinadigan mahsulotlarni qayta ishlash jarayonida mayda va yirik iflosliklardan tozalash texnika va texnologik vositalarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida to'qimachilik sanoati rivojlanmaganligi sababli paxta mahsulotlarini katta qismini eksport qilish yirik ishlab chiqarishga ega bo'lgan AQSH, Xitoy va Xindiston davlatlariga to'g'ri keladi<sup>1</sup>. Paxtaga dastlabki ishlov berish texnika va texnologiyalarini loyihalash va ishlab chiqarishning avtomatlashtirilgan usullarini rivojlantirish, texnologik jarayonlarni boshqarish usullarini takomillashtirish va amaliyotga joriy etishni taqazo etadi. Shu jihatdan paxtani jinni o'zida samarali tozalash va jinlash texnik vositalari va texnologiyalarini yaratish, tola va chigit sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi resurstejamkor texnikalarni ishlab chiqish va foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda paxtaga dastlabki ishlov berish yangi texnika va texnologiyalarini ishlab chiqish, paxtani mayda iflosliklardan tozalash, paxta sifatini yaxshilash bilan tozalash samaradorligini oshirish va jinlash texnologiyasini ilmiy asoslarini yaratishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, paxta va undan olinadigan mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari va texnologik jarayonni bir me'yorda ishlashiga salbiy ta'sir ko'satuvchi iflosliklarni va tiqilishlarni oldini olish ustivor yo'nalishlardan hisoblanmoqda. Bu borada, jumladan paxta tozalash korxonalarining asosiy uskunasi hisoblangan arrali jinni ishlash jarayonini avtomatlashtirish, resurstejamkor qismlar bilan jihozlash, paxtani iflosliklardan tozalashda ish unumdorligi va tozalash samaradorligi yuqori bo'lgan uskunalarni ishlab chiqish, uskunaning ekspluatatsiya ishonchligini takomillashtirish asosida ishlab chiqarilayotgan tolaning tabiiy sifatini saqlabga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda paxta-to'qimachilik sanoatini takomillashtirish asosida iqtisodiyot taraqqiyotining muxim shartlaridan biri bo'lgan paxta-to'qimachilik klasterlarini keng yo'lga qo'yish, paxtaga dastlabki ishlov berishda paxtani jinlash uskunasi loyihalash va ishlab chiqarish texnologik darajasini ko'tarish, ichki va tashqi bozorda arrali jinni raqobatbardoshligini ta'minlash yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "...sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish, to'qimachilik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish, jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishda to'qimachilik sohalarining ishlab chiqarishga ta'sirini o'rganish..."<sup>2</sup> bo'yicha muhim vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan yuqori va past navli paxtalarni jinni o'zida tozalash va jinlashda ishlab chiqarish samaradorligini oshiradigan va iste'molchining sifatli tola va chigitga bo'lgan talabini bajaradigan paxtani tozalash va jinlashni takomillashtirilgan samarali texnikasini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

<sup>1</sup>"Research and Market" veb-saytidagi hisobot

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28yanvardagi PF-60-son "yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 martdagi PQ-4633-son «Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida», Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 iyundagi 398-son “Paxta xom ashyosini etishtirish va qayta ishlash kooperasiyalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, Vazirlar mahkamasining 2018 yil 25 noyabrdagi 53-son “Paxta- to‘qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida“, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 yanvardagi 21-son “Respublika hududlarida paxta hosili terimini mexanizatsiyalash darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-xuquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Arrali jinni ishchi qismlarini yangi konstruksiyalarini yaratish, resurstejamkorligini oshirish, paxta xomashyosini jinlash texnologiyasini takomillashtirish, paxtani jinni o‘zida tozalash va arrali jinlashni ishlab chiqarish jarayonlariga va olinadigan tola hamda chigitning sifat va miqdor ko‘rsatkichlariga ta’siri masalalari bo‘yicha bir qator olimlar: E. Uitney, X. Xolms, A. Martinenko, V. Pampel, E. Lumpkin, G. Klark, G. Viyet, P. Pfiyger, S. Jonkers, K. Grin, L. Gladinevis, X. Shommer, I. Perkins va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Paxta xomashyosini jinda tozalash va arrali jinlash jarayonini takomillashtirish orqali ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini yaxshilash bo‘yicha nazariy-metodologik asosi bo‘lgan fundamental va amaliy masalalarni echishga mamlakatimizda bir qator olimlar: B.A. Levkovich, D.A. Shepelevich, R.G. Maxkamov, G.D. Djaborov, V.G. Gulidov, P.N. Tyutin, G.I. Boldinskiy, D.A. Kotov, E.T. Maqsudov, R.M. Kattaxodjaev, M. Tillaev, B. Mardonov, R.SH. Sulaymonov, J.S. Ergashev, Q.S. Sabirov, D.M. Muxammadiev va boshqalar o‘zlarini salmoqli hissalarini qo‘shganlar.

Lekin shunga qaramasdan bugungi kunda paxtani jinda mayda iflosliklardan tozalash va jinlashda jarayonni jadallashtirish bilan tozalash samaradorligini oshirish va jinga tozalangan paxtani bir tekis yoyilgan holatda kerakli miqdorda berish orqali xomashyo valigini toladorligini oshiradigan va kerakli zichlikda bo‘lishini ta‘minlaydigan, ishchi kameradan jinlangan chigitlarni tashqariga chiqishini jadallashtirish orqali jinning ish unumdorligini oshiradigan, tola va chigit sifatini yaxshilaydigan arrali jin uskunasini yaratish muammosi hozirgi vaqtgacha etarli darajada o‘rganilmagan.

**Dissertasiya mavzusining dissertasiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertasiya tadqiqoti «Paxtasanoat ilmiy markazi» aksiyadorlik jamiyati ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining

BV-Atex-2018-(241+209) «Paxta tolasining tozalash samaradorligi yuqori bo'lgan avtomatlashtirilgan arrali jin uskunasini va paxta tolasini presslashdan oldin namlashning samarali texnologiyasini ishlab chiqish» mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ta'minlagich-tozalagichni takomillashtirish orqali paxtani samarali tozalash va jinlash texnologiyasini ta'minlaydigan arrali jinni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:** paxtani jinda tozalash va jinlash texnikasi va texnologiyasini yaratishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil qilish;

tozalash zonasida paxtadan mayda iflosliklarni samarali ajratishda oqimdagi paxta bo'lakchasiga baraban qoziqlari bilan to'rtli yuzani o'zaro ta'sirini nazariy tadqiqotlar asosida ishlab chiqish;

paxtani jinda mayda iflosliklardan samarali tozalash jarayonini amalga oshiradigan yangi konstruksiyali qoziqli barabanni ishlab chiqish;

90 arrali jin ta'minlagich-tozalagichi uchun takomillashtirilgan qoziqli barabanni muqobil texnologik va konstruksion parametrlarini aniqlash;

yangi konstruksiyali qoziqli barabanli ta'minlagich-tozalagichga ega bo'lgan takomillashtirilgan 90 arrali jinning muqobil parametrlari va rejimlari asosida paxtani mayda iflosliklardan tozalash va jinlashda ishlab chiqarishdagi xarakteristikasini aniqlash.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida paxtani mayda iflosliklardan tozalash va jinlashda arrali jin texnikasi va texnologiyasi olingan.

**Tadqiqotning predmeti** paxtani mayda iflosliklardan samarali tozalash jarayonini amalga oshiradigan yangi konstruksiyali qoziqli baraban.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy mashina va mexanizmlar nazariyasi, oliy matematika, mexanika va tebranishlar nazariyasi, texnologik mashinalarni ish jarayonlarini matematik modellashtirish, matematik statistika va hisoblash matematikasi usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

arrali jinda paxtani mayda iflosliklardan tozalashda paxta sifatini yaxshilash bilan tozalash samaradorligini oshiradigan yangi konstruksiyali qoziqli baraban plankasini shaxmat shaklida uygan holda va barabandagi qoziqlar sonini kamaytirgan holda ishlab chiqilgan;

tozalash zonasida oqimdagi paxtadan mayda iflosliklarni ajralish jarayonining jadallashishi, barabandagi qoziqlar zarbasi ta'sirida paxtaning to'rtli yuza sirtidagi zichligiga va bosim kuchiga bog'liqlik tenglamasi paxta bo'lakchasi tezligini kamayish koeffisienti asosida aniqlangan;

yangi konstruksiyali qoziqli barabanda paxta oqimini to'rtli yuza yoyi bo'ylab tozalanishida qoziqlar zarba kuchi hisobiga oqimni bosimi, zichligi va tezligini o'zgarishi yuzaga kelishi bilan bosim va zichlikning kamayishi, tezlikning esa oshishi paxtani birinchi seksiyadan ikkinchi seksiyaga o'tishida titilishi hisobiga yuzaga kelganligi Eyler tenglamasi va stasionar xarakati uchun massani saqlanish holatini inobatga olgan holda aniqlangan;

paxtani mayda iflosliklardan tozalash va jinlashda, tozalash samaradorligining, jin ish unumdorligining va mahsulotlar sifatining oshishi qoziqli baraban aylanasi

bo‘ylab qoziqlar soni va qoziqlar bilan to‘rli yuza oraliq masofasiga bog‘liqligi regression teglamaga asosan o‘rnatilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

jinda paxtani mayda iflosliklardan samarali tozalash bilan jin ish unumdorligini oshishini, ishlab chiqarilgan maxsulotlar sifati yaxshilanishini ta‘minlaydigan takomillashtirilgan konstruksiyali qoziqli baraban ishlab chiqarilgan;

tozalash zonasida qoziqlar bilan to‘rli yuza oralig‘ida xarakatlanayotgan paxta oqimidan mayda iflosliklarni samarali ajratib olish uchun baraban kerakli qoziqlar bilan takomillashtirilgan;

amaliy tadqiqotlar asosida arrali jin ta‘minlagich-tozalagichi uchun qoziqli baraban bilan to‘rli yuzaning rasional texnologik va konstruktiv parametrlari aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi takomillashtirilgan qoziqli barabanga ega bo‘lgan arrali jin bo‘yicha olingan xulosalar va tavsiyalar, tajriba sinovlarini laboratoriya va paxta tozalash korxonasida ishlab chiqarish sharoitida o‘tkazilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining o‘zaro mosligi, ularni ma‘lum baholash me‘zonlari bo‘yicha adekvatligi, aprobasiya va joriy qilish, o‘tkazilgan tadqiqotlarning ijobiy natijalari va ularni ko‘rib chiqilayotgan fan sohasidagi ma‘lumotlarni qiyosiy tahlili bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tozalash zonasida qoziqli barabandagi qoziqlar soni, qoziqlar bilan to‘rli yuzani oqimdagi paxta bo‘lagi xarakatiga ta‘sirining algoritmik echimi ishlab chiqilishi, tozalash zonasida paxtadan mayda iflosliklarni ajralishining jadallashishi qoziqlar zarba ta‘siridan yuzaga keladigan paxtaning to‘rli yuza sirtidagi zichligiga va bosim kuchiga bog‘liqligi nazariy tadqiqotlari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yuqori tozalash samaradorlikda va ish unumdorlikda ishlaydigan, tola va chigit sifatini yaxshilaydigan yangi konstruksiyali qoziqli baraban bilan takomillashtirilgan 8DP-90 rusumli jinni tavsiya qilinganligi va ishlab chiqarish sharoitida qo‘llash imkoniyati bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Paxta-to‘qimachilik klasteri paxta tozalash korxonalarida paxtani mayda iflosliklardan jinda tozalash va jinlashda samaradorligi yuqori bo‘lgan uskunalarni yaratish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Jinni o‘zida paxtani mayda iflosliklardan tozalash va jinlash texnologiyasi va uskunasi «Paxta-to‘qimachilik klasterlari» uyushmasi tasarrufidagi korxonaga, jumladan Sirdaryo viloyati “Boyovut techno cluste” MCHJ paxta tozalash korxonasiga joriy etilgan («O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasining 2024 yil 15 dekabrda 02/22-497-son ma‘lumotnomasi). Natijada yuqori va past navli paxtani mayda iflosliklardan tozalashda jinning tozalash samaradorligini o‘rtacha 2,04 (abs)% va 2,2 (abs)% ga, ish unumdorligini o‘rtacha 45 kg/h ga oshirish imkoni yaratilgan;

takomillashtirilgan 8DP-90 rusumli arrali jin «Paxta-to‘qimachilik klasterlari» uyushmasi tasarrufidagi korxonaga, jumladan Sirdaryo viloyati “Boyovut techno cluste” MCHJ paxta tozalash korxonasiga joriy etilgan («O‘zto‘qimachilik sanoat»

uyushmasining 2024 yil 15 dekabrda 02/22-497-son ma'lumotnomasi). Natijada yuqori va past navli paxtani tozalash va jinlashdan ishlab chiqarilgan tolaning sifati o'rtacha 0,04 (abs)% ga va 0,11 (abs)% ga, chigitning sifati o'rtacha 0,11 (abs)% va 0,13 (abs)% ga yaxshilash imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha 2 ta halqaro, 2 ta Respublika anjumanlarida va 6 ta ilmiy seminarlarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola nashr etilgan, shulardan 6 ta maqola Respublika va 1 ta maqola xorijiy jurnallarida chop etilgan.


**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertasiyaning hajmi 107 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilish, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va xajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Arrali jinlardagi ta'minlovchi sistemaning analitik tahlili**" deb nomlangan birinchi bobi paxtani arrali jinda iflosliklardan tozalashda ishlatilayotgan ta'minlagich-tozalagichlarni bugungi kundagi xolatiga bag'ishlangan. Paxtani jinda tozalashda va jinlashda tozalash samaradorligini va ish unumdorligini oshirish, tola va chigitni sifatini yaxshilash bo'yicha olib borilgan ilmiy va amaliy ishlar taxlil qilindi. Maxalliy va xorijiy arrali jinlarda paxtani tozalashda paxta tarkibidan mayda va yirik iflosliklarni ajratishda paxta sifatiga, tozalash samaradorligiga, paxtani chiqindiga ajralish miqdoriga, elektr energiya va ehtiyot qismlarning sarfiga ta'sir etuvchi asosiy ishchi qism bo'lgan ta'minlovchi Sistema va undagi qoziqli barabanlarning konstruksiyalari o'rganildi.

Maxalliy 5DP-130 rusumli jin ta'minlagich -tozalagichida ishlab chiqarishda o'tkazilgan tajriba-tadqiqot ishlarining natijasi tozalagichning tozalash samaradorligi o'rtacha 9,0 % va 10,28 % ga teng bo'lib, jin pasportidagi ta'minlagich-tozalagich tozalash samaradorligiga



**1-rasm. 5DP-130 rusumli arrali jinni mavjud qoziqli barabanga ega bo'lgan ta'minlagich-tozalagichi sxemasi.**

qaraganda o'rtacha 5-6 % ga kam ekanligini ko'rsatdi (1- rasm). Bunga asosiy

sabablardan biri ta'minlagich -tozalagichidagi qoziqli baraban konstruksiyasi kamchiligidan ekanligi aniqlandi.

Xitoy texnologiyasiga moslashgan Juma paxta tozalash korxonasida ishlatilayotgan MY-171 rusumli arrali jin ta'minlagich-tozalagichida o'kazilgan

tadqiqot ishlarini natijasi ta'minlagich-tozalagichlarini tozalash samaradorligi yuqori va past navli paxtalarni tozalashda o'rtacha 25-38 % ga teng ekanligini ko'rsatdi. Lekin paxtani tozalashda chiqindiga, chiqindi massasiga nisbatan o'rtacha 15-25 % paxtani ajralishi va ushbu paxtani chiqindidan ajratish uchun qo'shimcha uskuna va elektr energiya sarflanishi kerakligi aniqlandi. Bundan tashqari murakkab konstruksiyaga ega ekanligi va balandligi 2-2,5 metrni tashkil etishi, ta'minlagich-tozalagichni ishlatilishida qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi bilan birga tozalagichni tez-tez tiqilishi jin ish unumdorligini kamayishiga olib kelishi o'rganildi (2-rasm).


O'rganishlar va taxlil qilishlar natijasi jinda paxtani mayda iflosliklardan tozalash va jinlashda, jin tozalash samaradorligini va ish unumdorligini oshirish, ishlab chiqarilgan tola va chigit sifatini yaxshilash uchun takomillashtirilgan qoziqli barabanga ega bo'lgan ta'minlagich-tozalagichli jinni ishlab chiqish va ishlab chiqarishga tadbqiq etish kerakligini ko'rsatdi.

Dissertatsiyaning "Arrali jin ta'minlagich-tozalagichi uchun takomillashtirilgan qoziqli barabanining nazariy tadqiqoti" deb nomlangan ikkinchi bobida paxta oqimini qoziqli baraban bilan to'rtli yuza oralig'idagi xarakati o'rganildi. Bunda paxta oqimi qoziqli baraban bilan to'rtli yuza oralig'idagi xarakatida vertikal va gorizonta yo'lni bosib o'tadi (3- rasm). Ushbu o'tish yo'lini birinchi va ikkinchi seksiyaga ajratib olamiz. Birinchi seksiyada paxta oqimi qisman siqiladi deb paxta oqimidan  $ds$  elementni ajratib olamiz (4- rasm). Oqim xarakatini stasionar deb olib, Eyler tenglamasiga asosan ajratilgan element uchun quyidagini yozamiz:

$$v\rho \frac{dv}{ds} = -\frac{dp}{ds} + \rho g \sin \alpha - Nf \quad (1)$$

bu erda  $N = \rho \frac{v^2}{R} - \rho g \cos \alpha$ ,  $s$  - A nuqtaga nisbatan paxtani to'rtli yuza bilan ta'siri yoyining uzunligi,  $v$  - paxta bo'lagini tezligi,  $p$ ,  $\rho$  - zichlik va bosim,  $R$  - baraban

1-ta'minlovchi valiklar, 2-qoziqli baraban, 3- to'rtli yuza, 4- chiqindi shnegi, 5- tarnov, 6- magnit



2-rasm. MY-171 rusumli arrali jin ta'minlagich-tozalagichining sxemasi.

- 1- ta'minlovchi valiklar; 2- qoziqli barabanlar; 3- kolosnikli panjara; 4- ustki arrachali baraban; 5- mahkamlovchi cho'tka; 6- ajratuvchi baraban; 7- ostki arrachali baraban; 8- kolosniklar; 9- chiqindi shnegi. 10- tarnov

radiusi,  $N$ - normal bosim kuchi,  $f$ - paxta bilan to'rtli yuz oraliq'idagi ishqalanish koeffisienti.

(1) tenglamaga  $N$  ni ifodasini qo'yib, zichlik  $\rho(s)$ , bosim  $p(s)$  va tezliklar  $v(s)$  ni o'zaro munosabatini ifodalovchi tenglamani olamiz:

$$v\rho \frac{dv}{ds} = -\frac{dp}{ds} + \rho g(\sin \alpha + f \cos \alpha) - \rho \frac{v^2}{R} f \quad (2)$$

(2) tenglamadagi  $\rho$ ,  $r$  va  $v$  no'malumlarni topish uchun massali jismni siqilish holatida zichlik  $\rho$  bilan bosim  $p$  ni o'zaro bog'liqligini ifodalovchi tenglamadan foydalanamiz:

$$\rho = \rho_c [1 + A(p - p_c)] \quad (3)$$

Bunda oqimning stasionar xarakati uchun massani saqlanish holatini inobatga olamiz:

$$\rho v S_0 = Q_0 \quad (4)$$

bu erda  $S_0 = k_0 L h$  - oqimdagi qatlamning ko'ndalang kesim yuzasi,  $h$ - qatlam qalinligi,  $L$ - baraban uzunligi,  $k_0$ - qoziqlar sirti bilan mahsulotni uchrashish yuzasi kamayishini xarakterlovchi koeffisient,  $Q_0$ - tozalagichni ish unumdorligi,  $\rho_c$ ,  $p_c$  - qoziq yuzasi bilan kontaktda bo'lgan mahsulotni bosimi va zichligi,  $A$ - paxtani siqilishini xarakterlovchi o'zgarmas kattalik.  $A \ll 1$  bo'lganda (4) tenglamadan tezlikni aniqlaymiz:

$$v = v_c [1 - A(p - p_c)] \quad (5)$$

Qoziqlar ta'sirida paxta bo'lagi  $v_c = \beta v_k$  tezlikni oladi. bu erda  $v_k$  - qoziqning chiziqli tezligi,  $\beta < 1$ - tezlikni kamayish koeffisienti. Tozalash zonasida oqimni o'rtacha tezligini  $v_{cp} = 0.5v_k$  deb qabul qilamiz va (5) tenglamadan  $v = v_c$  ni inobatga olib, qoziq yuzasi bilan kontaktdagi mahsulotni zichligini aniqlaymiz:


$$\rho_c = \frac{Q_0}{S_0 v_c} \quad (6)$$

$p = p_0$  va  $\rho = \rho_0$  ni qabul qilib, (3) tenglamani quyidagicha yozamiz:

$$p_c = p_0 - (\rho_0 / \rho_c - 1) / A \quad (7)$$


To'rtli yuzada paxta bo'lagini qoziq yordamida tashishda qoziqdan ajralmasligi  $p_c > 0$  ni inobatga olib, quyidagini yozamiz:

$$\frac{\rho_0}{\rho_c} < 1 + p_0 A \quad (8)$$



3- rasm. Paxtani qoziqli baraban bilan to'rtli yuz oraliq'idagi xarakati.

1-ta'minlovchi valiklar, 2- takomillashtirilgan qoziqli baraban, 3- to'rtli yuz



4- rasm. Paxta oqimidan ajratilgan ds elementni xarakati

Ikkinchi tomondan tozalash zonasida paxta bo'lagini titilishidan

$$\text{quyidagi } p_c < p_0 \text{ shart bajarilib, } \frac{\rho_0}{\rho_c} > 1 \text{ ni beradi. Bundan } 1 < \frac{\rho_0}{\rho_c} < 1 + p_0 A \quad (9)$$

Paxta oqimi to'rtli yuzaning vertikal va gorizontaal qismi bilan  $\alpha_0 < \alpha < 2\alpha_0$  va  $2\alpha_0 \leq \alpha < 3\alpha_0$  kontaktda bo'lishini inobatga olib, (9) tenglamani har qaysi uchastka uchun quyidagicha yozamiz:

$$\alpha_0 < \alpha < 2\alpha_0 \text{ bo'lganda } p_{11} = F(\alpha) \left[ \frac{p_c}{F(\alpha_0)} + \int_{\alpha_0}^{\alpha} \frac{F_r(\alpha)}{F(\alpha)} d\alpha \right] \quad (10)$$

$$2\alpha_0 < \alpha < 3\alpha_0 \text{ bo'lganda } p_{12} = F(\alpha) \left[ \frac{p_{1c}}{F(2\alpha_0)} + \int_{2\alpha_0}^{\alpha} \frac{F_r(\alpha)}{F(\alpha)} d\alpha \right] \quad (11)$$

Paxtani qoziqlar ta'sirida to'rtli yuza bo'ylab xarakatida undan mayda iflosliklar ajraladi. Buni inobatga olgan holda tozalash zonasiga kirgan paxta massasi  $m$  va uni  $\rho$  zichligi orasidagi bog'liqlikni quyidagicha ifodalaymiz:

$$\frac{dm}{m} = \lambda \frac{d\rho}{\rho} \quad (12)$$

bu erda  $\lambda = 1/(1+a)$ ,  $a > 0$  - proporsionallik koeffisienti.

(12) tenglamani  $m = m_0$  holda integrallab,  $\alpha = \alpha_0$  bo'lganda  $\rho = \rho_k$  inobatga olib, qoziqlar orasidagi tozalash zonasi uchun quyidagini olamiz:

$$\frac{m}{m_0} = \left( \frac{\rho}{\rho_0} \right)^\lambda \quad (13)$$

(7) va (13) tenglamalarni inobatga olib,  $\alpha_0 < \alpha < 2\alpha_0$  bo'lganda har bir uchastka uchun tozalash samaradorligini ifodalovchi tenglama olindi:

$$\varepsilon_{11} = \frac{m_0 - m}{m_0} = 1 - \left[ \frac{1 + A(p - p_0)}{1 + A(p_k - p_0)} \right]^\lambda \quad (14)$$

$2\alpha_0 < \alpha < 3\alpha_0$  bo'lganda esa qoziqlar yordamida tozalash zonasida iflos aralashmalar massasining tarqalishi ifodalovchi formula olindi:


$$\varepsilon_{12} = \varepsilon_{11}(2\alpha_0) \left( \frac{\rho}{\rho_0} \right)^\lambda = \varepsilon_1(2\alpha_0) \left[ \frac{1 + A(p - p_0)}{1 + A(p_k - p_0)} \right]^\lambda \quad (15)$$

Tozalash zonasida ajralgan iflos aralashmalarining massaviy ulushi quyidagiga teng:

$$M = M_1 + M_2 + M_3 + M_4 + M_5 + M_6, \text{ bu erda } M_1 = \int_{\alpha_0}^{2\alpha_0} \varepsilon_{11} d\alpha, M_2 = \int_{\alpha_0}^{2\alpha_0} \varepsilon_{21} d\alpha, \\ M_3 = \int_{\alpha_0}^{2\alpha_0} \varepsilon_{31} d\alpha, M_4 = \int_{2\alpha_0}^{3\alpha_0} \varepsilon_{12} d\alpha, M_5 = \int_{2\alpha_0}^{3\alpha_0} \varepsilon_{22} d\alpha, M_6 = \int_{2\alpha_0}^{3\alpha_0} \varepsilon_{32} d\alpha, \varepsilon_{21} = \varepsilon_{12}(3\alpha_0) \left( \frac{\rho}{\rho_0} \right)^\lambda, \\ \varepsilon_{22} = \varepsilon_{21}(2\alpha_0) \left( \frac{\rho}{\rho_0} \right)^\lambda, \varepsilon_{31} = \varepsilon_{22}(3\alpha_0) \left( \frac{\rho}{\rho_0} \right)^\lambda, \varepsilon_{32} = \varepsilon_{31}(2\alpha_0) \left( \frac{\rho}{\rho_0} \right)^\lambda.$$


Hisoblash ishlarida quyidagi kattaliklar olindi:  $R = 0.2M$ ,  $\omega = 50c^{-1}$ ,  $v_c = 0.38v_k$ ,  $L = 1.7M$ ,  $k_0 = 0.8$ ,  $\rho_0 = 40\text{кг} / \text{м}^3$ ,  $p_0 = 1500 \text{Па}$ ,  $A = 0.0009 \text{Па}^{-1}$ ,  $\alpha_0 = 45^\circ$ ,  $f_0 = 0.2$ ,  $n = 0.5$ .

Barabandagi qoziqlar bilan to'rtli yuza  $h$  oralig'ining kattaligi uchun tozalash zonasida to'rtli yuza bo'ylab kontaktda bo'lgan paxta oqimi zichligini va tezligini taqsimlanish grafigi olindi (5- rasm).



5- rasm.  $h$  oralig'ining kattaligi uchun tozalash zonasida to'rtli yuza bo'ylab kontaktda bo'lgan paxta oqimi zichligini a) va tezligini b) taqsimlanish grafigi.

$\lambda$  parametrning  $1-\lambda = 0.06$ ,  $2-\lambda = 0.08$ ,  $3-\lambda = 0.1$ ,  $4-\lambda = 0.12$  qiymatlarida baraban qoziqlari bilan to'rtli yuza  $h$  oralig'ining kattaligi uchun vertikal va gorizontol tozalash zonasida to'rtli yuza yoyi bo'ylab kontaktda bo'lgan paxta oqimi bosimini taqsimlanish grafigi olindi (6- rasm).



6- rasm.  $\lambda$  parametrning  $1-\lambda = 0.06$ ,  $2-\lambda = 0.08$ ,  $3-\lambda = 0.1$ ,  $4-\lambda = 0.12$  qiymatlarida  $h$  oralig'ining kattaligi uchun vertikal a) va gorizontol b) tozalash zonalarida to'rtli yuza yoyi bo'ylab kontaktda bo'lgan paxta oqimi bosimini taqsimlanish grafigi

Dissertasiyaning “Arrali jin ta'minlagich-tozalagichi uchun takomillashtirilgan qoziqli barabanni ishlab chiqish bo'yicha amaliy izlanishlar” deb nomlangan uchinchi bobida yangi konstruksiyali qoziqli baraban bilan takomillashtirilgan ta'minlagich-tozalagichga ega bo'lgan 30 arrali 5DP-130 rusumli arrali jinda laboratoriya sharoitida o'tkazilgan tadqiqot ishlarining natijasi keltirilgan (7- rasm). Tadqiqot ishlarida 30 arrali jin ta'minlagichidagi taklif etilgan qoziqli barabanni muqobil o'lchamlari matematik rejalar usuli orqali ko'p omilli tajribalar asosida aniqlandi.

Baholash mezonini sifatida tozalangan paxtaning ifloslik darajasi  $Y_1$ ,

chigit shikastlanishi  $Y_2$ , tozalash samaradorligi  $Y_3$  olindi.

Belgilangan kriteriyalarga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida: baraban aylanasi bo'ylab qoziqlar soni, qoziqli baraban bilan to'rtli yuza oraliq masofasi, ta'minlagich-tozalagichni ish unumdorligi olindi. Tajriba natijalari kompyuter programmalaridan foydalanilgan holda, dastlabki ishlash natijasida Fisher kriteriyasi bo'yicha barcha chiqish parametrlarini etarli darajada tavsiflovchi quyidagi regressiya tenglamalari olindi:

- tozalangan paxtani ifloslik darajasi:

$$Y_1 = 1.2271 + 0.0038 X_1 - 0.0004 X_2 + 0.0033 X_3 + 0.0033 X_1 X_3 + 0.0042 X_2 X_3$$

- chigitni shikastlanishi:


$$Y_2 = 2.2225 - 0.0100 X_1 + 0.0121 X_2 - 0.02125 X_3 + 0.0067 X_2 X_3$$

- ta'minlagichni tozalash samaradorligi:

$$Y_3 = 15.7938 + 0.3313 X_1 - 0.1146 X_2 + 0.11875 X_3 - 0.1688 X_1 X_2 + 0.1646 X_1 X_2 X_3$$


Baraban aylanasi bo'ylab qoziqlar sonini 10 donadan 14 donagacha va barabandagi qoziqlar bilan to'rtli yuza oraliq masofasini 14 mm dan 18 mm gacha o'zgarishida tozalangan paxtaning sifati amaldagi qoziqli barabanli ta'minlagichdan ishlab chiqarilgan paxtaning sifatiga qaraganda 0,05 (abs)% dan 0,04 (abs)% ga yaxshilandi (8- rasm).

Ko'p omilli tajribalar natijasida paxtani samarali tozalash va jinlash jarayoni qoziqli baraban aylanasi bo'ylab qoziqlarni 12 donada joylanishi va qoziqli baraban bilan to'rtli yuza oraliq masofasini 16 mm dagi muqobil kattaligida amalga oshishi aniqlandi. Tanlab olingan muqobil kattalikda ta'minlagich-tozalagichni tozalash samaradorligi mavjud konstruksiyali qoziqli barabanli ta'minlagich-tozalagich tozalash samaradorligiga qaraganda o'rtacha 3,3 (abs) % ga, jinni ish unumdorligi o'rtacha 3,2 kg/soatga



7- rasm. Takomillashtirilgan qoziqli barabanga ega bo'lgan arrali jinni ta'minlagich-tozalagichi sxemasi.

1- ta'minlovchi valiklar, 2- qoziqli baraban, 3- to'rtli yuza, 4- tarnov, 5- chiqindi shnegi



8- rasm. 30 arrali jin ta'minlagichida tozalangan paxta ifloslik darajasini qoziqli baraban bilan to'rtli yuza oraliq masofasiga bog'liqligi.


1- mavjud qoziqli barabanli ta'minlagichda, 2- takomillashtirilgan qoziqli barabanli ta'minlagichda

yuqori bo‘ldi (9- rasm). Jindan ishlab chiqarilgan toladagi nuqsondor tola va iflos aralashmalarning massaviy ulushi tanlab olingan muqobil kattalikda o‘rtacha 3,17 % ni, chigit shikastlanish darajasi o‘rtacha 2,98 % ni tashkil etib, mavjud qoziqli barabanga ega bo‘lgan ta‘minlagich- tozalagichli jindan ishlab chiqarilgan tolaga qaraganda tola sifati o‘rtacha 0,06 (abs)% ga, chigit sifati 0,07 (abs)% ga oshganligi aniqlandi (10-rasm).

Tadqiqot ishlari davrida qoziqli barabandagi qoziqlar bilan to‘rli yuzani 16-18 mm oraliq masofalarida o‘rnatilishida ta‘minlagich- tozalagichni samarali ishlashi yuzaga keldi. Bunda qoziqli baraban bilan to‘rli yuzani 16-17 mm oraliq masofada o‘rnatilishida jindan keyingi chigit tukdorligi o‘rtacha 10,5 % ni, shikastlanishi 2,98 % ni va 2,95 % ni, oraliq masofani 18 mm da o‘rnatilishida jindan keyingi chigit tukdorligi o‘zgarmas bo‘lib, shikastlanishi o‘rtacha 2,89 % ni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkichlar texnik va urug‘lik paxtani jinlashda arrali jinga qo‘yilgan texnologik talabni bajarganligidan texnik paxtalarni jinlashda qoziqli baraban bilan to‘rli yuz oraliq masofasini 16-17 mm, urug‘lik paxtalarni jinlashda esa 18 mm o‘rnatish maqsadli ekanligi aniqlandi.


Dissertasiyaning **“Qoziqli barabani takomillashtirilgan ta‘minlagich-tozalagichga ega bo‘lgan arrali jinda ishlab chiqarish sinovi va iqtisodiy samaradorlik hisobi”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida ishlab chiqarishda o‘tkazilgan taqqoslash-tadqiqot ishlarining natijasi keltirildi.

Erishilgan muqobil kattalaiklar asosida takomillashtirilgan qoziqli barabanning chizmalari tayyorlandi va sanoat-tajriba nusxasi ishlab chiqarildi (11, 12- rasmlar). Ishlab chiqarilgan nusxa Sirdaryo viloyatidagi “Boyovut techno cluste” MCHJ paxta tozalash korxonasi paxtani jinlash




**9- rasm. 30 arrali jin ta‘minlagichi tozalash samaradorligini qoziqli baraban bilan to‘rli yuz oraliq masofasiga bog‘liqligi.**

1- mavjud qoziqli barabanli ta‘minlagichda,  
2- takomillashtirilgan qoziqli barabanli ta‘minlagichda



**10- rasm. 30 arrali jindan ishlab chiqarilgan tola va chigit sifat ko‘rsatkichini qoziqli baraban bilan to‘rli yuz oraliq masofasiga bog‘liqligi.**

1, 3- mavjud qoziqli barabanli ta‘minlagichda,  
2, 4- takomillashtirilgan qoziqli barabanli ta‘minlagichda



**11- rasm. Takomillashtirilgan qoziqli barabanni sanoat- tajriba nusxasining yig'ma chizmasi**



**12- rasm. Takomillashtirilgan qoziqli barabanni sanoat- tajriba nusxasi**

texnologik tizimidagi bir dona 90 arrali jinga o'rnatilib, jin takomillashtirildi (13, 14-rasmlar) va texnologik tizimdagi mavjud konstruksiyali qoziqli barabanli ta'minlagich-tozalagichga ega bo'lgan 90 arrali jin bilan taqqoslash-tajriba ishlari o'tkazildi.

Laboratoriya sharoitida o'tkazilgan tadqiqot ishlari natijasida taklif etilgan qoziqli barabanli ta'minlagich- tozalagichda texnik paxtani tozalash va jinlashda paxtani samarali tozalash va jinlash jarayonini amalga oshishi, ishlab chiqarilgan tola va chigit sifatining yaxshilanishi jin ta'minlagich- tozalagichidagi qoziqli baraban aylanasi bo'ylab qoziqlar sonini 12 donada, texnik paxtalarni tozalashda barabandagi qoziqlar uchi bilan to'rtli yuzani 16 mm va 17 mm oraliq masofasida, urug'lik paxtalarni tozalashda esa 18 mm oraliq masofada amalga oshirilganligini inobatga olib, taqqoslash- tajriba ishlari yuqorida qayd etilgan barabandagi qoziqlar soni va baraban bilan to'rtli yuz oraliq masofalarida olib borildi.

Sinov ishlari boshlang'ich namligi 10,8 % va 12,6 %, iflosligi 7,6 % va 9,8 % bo'lgan Culton seleksiyali paxtaning I va III nav 2- sinfida o'tkazildi. Bunda jin ta'minlagich- tozalagichiga berilgan I nav 2-sinfl paxtaning namligi o'rtacha 8,0 % ni, iflosligi o'rtacha 1,47 % ni, paxta tarkibidagi chigit

shikastlanishi o'rtacha 1,93 % ni, III nav 2- sinfli paxtaning namligi o'rtacha 9,3 % ni, iflosligi 1,66 % ni, chigit shikastlanishi 2,23 % ni tashkil etdi.

Namligi 8,2 %, iflosligi 1,47 % bo'lgan Sulton seleksiyali I nav 2- sinfli paxtani 90 arrali jinning ta'minlagich- tozalagichidagi taklif etilgan qoziqli baraban bilan to'rtli yuzani 16-18 mm oraliq masofasida tozalashda tozalangan paxtaning ifloslik darajasi o'rtacha 1,22 - 1,25 % ga teng bo'lib, paxta sifati mavjud qoziqli barabanli ta'minlagich -tozalagichda tozalangan paxta sifatiga qaraganda o'rtacha 0,03 (abs)%- 0,04 (abs)% ga yaxshilandi

(15- rasm). Bunda tozalangan paxta tarkibidagi chigit shikastlanish darajasi o'rtacha 2,12- 2,03 % ga teng bo'lib, chigit sifati mavjud ta'minlagich-tozalagichda tozalangan paxta tarkibidagi chigit shikastlanishiga qaraganda o'rtacha 0,06 (abs)%- 0,05 (abs)% ga yaxshilandi. Paxtani tozalashda ta'minlagich- tozalagichni tozalash samaradorligi oraliq masofalarni 16 mm dan 18 mm gacha o'zgarishida o'rtacha 17,0- 15,0 % ni tashkil etib, taqqoslash uchun

tanlangan mavjud qoziqli barabanli ta'minlagich- tozalagich tozalash samaradorligiga qaraganda o'rtacha 2,04 (abs)%- 2,8 (abs)% ga yuqori ekanligini ko'rsatdi. Paxtani jinlashda jindan keyingi chigit tukdorlik darajasi qoziqli baraban bilan to'rtli yuzani 16 mm dan 18 mm gacha o'zgarishida deyarli bir xil bo'lib, o'rtacha 10,4 % ni tashkil etdi. Bunda chigitni shikastlanish darajasi o'rtacha 3,14- 3,03 % ga teng bo'lib, chigit sifati mavjud qoziqli barabanli jindan ishlab chiqarilgan chigitga qaraganda o'rtacha 0,11- 0,09 (abs)% ga yaxshilandi. Jindan keyingi tolani iflosligi o'rtacha 3,19-3,24 % ni tashkil etib, tola sifati tajriba uchun tanlab olingan mavjud qoziqli barabanli jindan ishlab




13- rasm. Takomillashtirilgan qoziqli barabanga ega bo'lgan 90 arrali jinning ta'minlagichi



14- rasm. Boyovut techno cluste" MCHJ paxta tozalash korxonasiidagi takomillashtirilgan qoziqli barabanga ega bo'lgan 8DP-90 rusumli jin


chiqarilgan tolaga qaraganda oʻrtacha 0,04-0,08 (abs)% ga oshdi. Paxtani jinlashda jinni ish unumdorligi oʻrtacha 990-1035 kg/soatga teng boʻlib, mavjud qoziqli barabanli jin ish unumdorligiga qaraganda oʻrtacha 45 kg/soatga yuqori ekanligini koʻrsatdi. Texnologiyada ishlab chiqarilgan tolaning sifatini oʻrganish uchun jindan keyingi tozalagichda tola tozalandi. Bunda tozalangan tolaning iflosligi oʻrtacha 1,95-2,0% ga teng boʻlib, ishlab chiqarilgan tola sifatining yaxshilanganligidan I nav “Oliy” sinfni tashkil etdi.



**15- rasm. Navlar boʻyicha tozalangan paxta iflosligini, qoziqli baraban bilan toʻrli yuza oraliq masofasiga bogʻliqligi.**

1, 3- mavzud konstruksiyali qoziqli barabanda,  
2, 4- takomillashtirilgan konstruksiyali qoziqli barabanda


Namligi 9,3 %, iflosligi 1,66 % boʻlgan Culton seleksiyali III nav 2- sinfli paxtani 90 arrali jinning taʼminlagich- tozalagichidagi takomillashtirilgan qoziqli baraban bilan toʻrli yuzani 16-18 mm oraliq masofasida tozalanishida tozalangan paxtaning ifloslik darajasi oʻrtacha 1,32 -1,37 % ga teng boʻlib, paxta sifati mavjud qoziqli barabanli taʼminlagich –tozalagichda tozalangan paxta sifatiga qaraganda oʻrtacha 0,07- 0,05 (abs)% ga yaxshilanganligi aniqlandi. Bunda tozalangan paxta tarkibidagi chigit shikastlanish darajasi oʻrtacha 2,46- 2,36 % ga teng boʻlib, chigit sifati mavjud taʼminlagich-tozalagichda tozalangan paxta tarkibidagi chigit shikastlanish darajasiga qaraganda oʻrtacha 2,46- 2,36 % ga teng boʻlib, chigit sifati mavjud taʼminlagich - tozalagichda tozalangan paxta tarkibidagi chigit sifatiga qaraganda oʻrtacha 0,04- 0,02 (abs)% ga yaxshilandi. Paxtani tozalashda taʼminlagich- tozalagichni tozalash samaradorligi oraliq masofalarni 16 mm dan 18 mm gacha oʻzgarishida oʻrtacha 20,5- 17,5 % ni tashkil etib, taqqoslash uchun tanlangan mavjud qoziqli barabanli taʼminlagich-tozalagich tozalash samaradorligiga qaraganda oʻrtacha 2,2- 3,0 (abs)% ga yuqori ekanligini koʻrsatdi (16- rasm). Paxtani jinlashda jindan keyingi chigit tukdorlik darajasi qoziqli baraban bilan toʻrli yuzani 16 mm dan 18 mm gacha oʻzgarishida deyarli bir xil boʻlib, oʻrtacha 11,8 % ni tashkil etdi. Bunda



**16- rasm. Navlar boʻyicha taʼminlagich-tozalagichni tozalash samaradorligini qoziqli baraban bilan toʻrli yuza oraliq masofasiga bogʻliqligi.**

1,3- mavzud konstruksiyali qoziqli barabanda,  
2, 4- takomillashtirilgan konstruksiyali qoziqli barabanda

chigitni shikastlanish darajasi o'rtacha 3,51- 3,35 % ga teng bo'lib, chigit sifati mavjud qoziqli barabanli jindan ishlab chiqarilgan chigitga qaraganda o'rtacha 0,13-0,07 (abs)% yaxshilandi. Jindan keyingi tolaning iflosligi o'rtacha 4,33- 4,42 % ni tashkil etib, mavjud qoziqli barabanli jindan ishlab chiqarilgan tola iflosligiga qaraganda o'rtacha 0,11- 0,08 (abs)% ga kam ekanligini ko'rsatdi. Paxtani jinlashda jinning ish unumdorligi o'rtacha 855-918 kg/soatga teng bo'lib, mavjud qoziqli barabanli jin ish unumdorligiga qaraganda o'rtacha 45- 54 kg/soatga yuqori ekanligi aniqlandi. Jindan keyingi tola tozalagichda tozalanganda toladagi nuqsondor tola va iflos aralashmalarning massaviy ulushi o'rtacha 2,94-3,05 % ga teng bo'lib, mavjud jindan ishlab chiqarilgan tolaning tola tozalagichda tozalanishidan ishlab chiqarilgan tolagaga qaraganda sifati o'rtacha 0,11-0,09 (abs)% ga yaxshilandi (17- rasm) va O'zDst 604:2016 davlat standarti bo'yicha III nav "Oliy" va "Yaxshi" sinfni tashkil etdi.



**17- rasm. Navlar bo'yicha tozalangan tola iflosligini qoziqli baraban bilan to'rtli yuza oraliq masofasiga bog'liqligi.**

1,3- mavzud konstruksiyali qoziqli barabanda,  
2, 4- takomillashtirilgan konstruksiyali qoziqli barabanda

Yuqori va past navli paxtalarni arrali jinda mayda iflosliklardan tozalash va jinlashda jin tozalash samaradorligining va ish unumdorligini oshishi, ishlab chiqarilgan tola va chigit sifatining yaxshilanishidan kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik bitta paxta tozalash korxonasi ga bir mavsumga o'rtacha 346,2 mln. so'mni tashkil etadi.

## XULOSA

1. Mahalliy va xorijiy paxta tozalash korxonalariga joriy etilgan arrali jinlardagi ta'minlagich- tozalagichlarni konstruksiyalari, avzallik va kamchiliklarini o'rgangan holda tozalash samaradorligini va ish unumdorligini oshiradigan, tola va chigit sifatini yaxshilaydigan, takomillashtirilgan qoziqli barabanli ta'minlagich- tozalagichni sxemasi ishlab chiqildi.

2. Paxta oqimini to'rtli yuza yoyi bo'ylab tozalanishida qoziqlar zarba kuchidan oqimni bosimi, zichligi va tezligini o'zgarishi yuzaga kelishi bilan bosim va zichlikning kamayishi, tezlikning esa oshishi paxtani birinchi seksiyadan ikkinchi seksiyaga o'tishida titilishi hisobiga yuzaga kelganligi aniqlandi. Tozalash zonasida eng ko'p iflosliklarni ajralishi birinchi va uchinchi qoziqlar oraliq uchastkasida sodir bo'lishi, qolgan uchastkalarda esa iflosliklar ajralish darajasini kamayib borishi o'rganildi.

3. 90 arrali jinni takomillashtirilgan qoziqli barabanini muqobillashtirish uchun to'rtliq omilli tajribalar o'tkazildi. Olingan regressiya tenglamalar va laboratoriya

tadqiqotlari taxlili natijasida qoziqli baraban aylanasi bo‘ylab qoziqlarni 12 donada va qoziqli baraban bilan to‘rli yuza oraliq masofasini 16 mm dagi muqobil kattaligida bo‘lishi aniqlandi.

4. Sirdaryo viloyati “Boyovut techno cluste” MCHJ paxta tozalash korxonasi Sulton seleksiyali I va III nav 2-sinfl paxtani 8DP-90 rusumli jinni takomillashtirilgan ta‘minlagich-tozalagichdagi qoziqli barabanning muqobil parametrlarida tozalashda tozalagichning tozalash samaradorligi 17,0- 20,5 % ni tashkil etib, korxonada ishlab turgan mavjud qoziqli barabanli 8DP-90 rusumli jin tozalash samaradorligiga qaraganda navlar bo‘yicha o‘rtacha 2,04- 2,2 (abs)% ga yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Bunda tozalangan paxtaning ifloslik darajasi 1,22 -1,32 % ga teng bo‘lib, paxta sifati mavjud qoziqli barabanli ta‘minlagich-tozalagichda tozalangan paxta sifatiga qaraganda o‘rtacha 0,03- 0,07 (abs)% ga yaxshilandi. Paxtani tozalashda paxta tarkibidagi chigit shikastlanishi mavjud qoziqli barabanli ta‘minlagich-tozalagichda tozalangan paxta tarkibidagi chigit shikastlanishiga qaraganda 0,04- 0,06 (abs)% ga yaxshilandi.

5. Tozalangan paxtani jinlashdan ishlab chiqarilgan chigitning shikastlanish darajasi navlar bo‘yicha 3,14 % ni va 3,51 % ni tashkil etib, chigit sifati mavjud qoziqli barabanli jindan ishlab chiqarilgan chigitga qaraganda o‘rtacha 0,11 (abs)% va 0,13 (abs)% ga yaxshilandi. Jindan keyingi toladagi nuqsondor tola va iflos aralashmalarning massaviy ulushi o‘rtacha 3,19 % ga va 4,33 % ga teng bo‘lib, mavjud qoziqli barabanli jindan ishlab chiqarilgan tolaga qaraganda sifati o‘rtacha 0,04- 0,11 (abs)% ga oshdi. Bunda jinning ish unumdorligi o‘rtacha 990- 855 kg/soatga teng bo‘lib, mavjud qoziqli barabanli jin ish unumdorligiga qaraganda o‘rtacha 45 kg/soatga yuqori ekanligini ko‘rsatdi.

6. Jindan keyingi tola 5VP rusumli tozalagichda tozalanganda, tolaning sifati mavjud jindan ishlab chiqarilgan tolani 5VP tozalagichda tozalanishidan keyingi tolaning sifatiga qaraganda o‘rtacha 0,13 -0,11 (abs)% ga yaxshilandi va O‘zDst 604:2016 davlat standarti bo‘yicha I va III nav “Oliy” va “YAxshi” sinflarga mansub tola ishlab chiqarildi.

7. Arrali jin samaradorligini oshirish, tola va chigit sifatini yaxshilash uchun ta‘minlagichda takomillashtirilgan konstruksiyali qoziqli barabanni qo‘llash bilan baraban aylanasi bo‘ylab qoziqlar sonini 12 dona, uzunligi bo‘yicha 12 qator olish maqsadligi ekanligi o‘rganildi. Bunda texnik paxtani jinda tozalash va jinlashda, jin tozalash samaradorligi va ish unumdorligi yuqori bo‘lishi uchun qoziqlar bilan to‘rli yuza oraliq masofasini 16-17 mm kattalikda, urug‘ik paxtani jinda tozalash va jinlashda chigit shikastlanishi me‘yoridan oshmasligi uchun qoziqlar bilan to‘rli yuza oraliq masofasini 18 mm kattalikda o‘rnatish tavsiyasi berildi.

8. Paxtani jinlash texnologiyasidagi 8DP-90 rusumli arrali jin ta‘minlagich-tozalagichini takomillashtirilishidan jinni tozalash samaradorligi va ish unumdorligini oshishi, ishlab chiqarilgan tola va chigit sifatining yaxshilanishi hisobiga paxta-to‘qimachilik klasteri tizimidagi bir dona paxta tozalash korxonasiga bir mavsumga kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik 346,2 mln. so‘mni tashkil etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ 03/30.06.2020.Т.115.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ДЖИЗАКСКОМ ПОЛИТЕХНИЧЕСКОМ  
ИНСТИТУТ**

---

**ДЖИЗАКСКИЙ ПОЛИТЕХНИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ**

**БЕКТУРДИЕВ ГУЛЯМ КУВАНДИКОВИЧ**

**ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПИЛЬНОГО ДЖИНА ПУТЕМ  
МОДЕРНИЗАЦИИ ПИТАТЕЛЯ**

**05.06.02 – Технология текстильных материалов и  
первичная обработка сырья**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО  
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Жиззах – 2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан номером №B2022.2.PhD/T2912.

Диссертация выполнена в Гулистанском Государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице ([www.jizpi.uz](http://www.jizpi.uz)) Научного совета при Джизакском политехническом институте и Информационно-образовательном портале "Ziyounet" по адресу ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Сулиманов Рустам Шеникович**  
Доктор технических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Уразов Мустафакул Култураевич**  
Доктор технических наук, доцент

**Пардаев Хонимкул Нарматович**  
Доктор технических наук, доцент

**Ведущая организация:**

Наманганский Государственный  
технический Университет

Защита диссертации состоится «17» октября 2025 года в 14<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.03/30.06.2020.T.115.01 при Джизакском политехническом институте по адресу: 130100, г. Джиззах, улица Ислама Каримова, 4 дом. Первое здание Джизакского политехнического института, тел.: (+99872) 226-46-05, факс: (+99872) 226 45-06, e-mail: [dgpi\\_info@edu.uz](mailto:dgpi_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Джизакского политехнического института, (зарегистрирована за № 221). Адрес: 130100, г. Джиззах, улица Ислама Каримова, 4 дом. Тел.: (+99872) 226-46-05, факс: (+99872) 226-45 06.

Автореферат диссертации разослан « 6 » октябрь 2025 года.

(Протокол реестра рассылки № 34 от «07» августа 2025 года).



The image shows the official seal of the Scientific Council of the Jizakh Polytechnical Institute. The seal is circular and contains the text "JIZAX POLITEHNIKA" and "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TALIM, FAN VA INNOVATSIYA VAZIRLIGI". Overlaid on the seal are three blue ink signatures. To the right of the seal, the names and titles of the signatories are listed.

**А. Усмонкулов**  
Председатель Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
д.т.н., проф.

**И. Аббазов**  
Ученый секретарь Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
д.т.н., доцент

**А. Паршиев**  
Председатель научного семинара при Ученом  
совете по присуждению ученых степеней,  
д.т.н., проф.

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Использование приемов и технологических средств очистки хлопкового сырья от мелких и крупных примесей при переработке волокна, семян и продуктов их переработки является одной из ведущих технологий в мире. Из-за неразвитости мировой текстильной промышленности, основная часть экспорта хлопка приходится на крупнейших производителей: США, Китай и Индию<sup>1</sup>. Требуется разработка и создание автоматизированных методов производства техники и технологий первичной обработки хлопка, а также совершенствование и внедрение методов управления технологическими процессами. В связи с этим, актуальны создание эффективных методов и технологий очистки и джинирования хлопка, повышение качества волокна и семян, разработка и использование ресурсосберегающих технологий, повышающих эффективность производства.

